



International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd February, 2026

Website: <https://econferencia.com>

ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARINING XIZMAT VAQTIDA HAYOTI VA SOG‘LIGIGA YETKAZILGAN ZARARNI QOPLASHNI FUQAROLIK HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNING AMALDAGI MUAMMOLARI VA TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI

Abdukarimov Shohzod Abduhakim o‘g‘li

IIV Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar va kadrlar bilan ta‘minlash departamenti, Yoshlar ittifoqi yetakchilar kengashi raisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada ichki ishlar organlari xodimlarining xizmat vaqtida hayoti va sog‘lig‘iga yetkazilgan zararni qoplashni fuqarolik-huquqiy tartibga solishdagi amaldagi muammolar tahlil qilinadi. Xususan, davlat javobgarligining qo‘llanish mexanizmi, kompensatsiya miqdorini belgilashdagi huquqiy noaniqliklar hamda sud amaliyotida uchrayotgan kamchiliklar yoritilib, ushbu sohani takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha aniq takliflar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: ichki ishlar organlari xodimlari, hayot va sog‘liqqa yetkazilgan zarar, fuqarolik-huquqiy javobgarlik, davlat javobgarligi, kompensatsiya, sud amaliyoti, huquqiy muammolar.

Аннотация:

В статье анализируются актуальные проблемы гражданско-правового регулирования возмещения вреда, причинённого жизни и здоровью сотрудников органов внутренних дел при исполнении служебных обязанностей. Рассматриваются вопросы применения ответственности государства, правовые неопределённости при определении размера



International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd February, 2026

Website: <https://econferencia.com>

компенсации и недостатки судебной практики, а также предлагаются основные направления совершенствования правового регулирования.

Ключевые слова: сотрудники органов внутренних дел, вред жизни и здоровью, гражданско-правовая ответственность, ответственность государства, компенсация, судебная практика, правовые проблемы.

Abstract:

The article analyzes the current problems of civil law regulation of compensation for damage to the life and health of internal affairs officers in the course of performing official duties. Special attention is paid to the application of state liability, legal uncertainties in determining the amount of compensation, shortcomings in judicial practice, and the main directions for improving legal regulation.

Key words: internal affairs officers, damage to life and health, civil liability, state liability, compensation, judicial practice, legal problems.

O‘zbekiston Respublikasida mazkur yo‘nalish bo‘yicha huquqiy tartibga solishning amaldagi tizimi, xususan, “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonun, Fuqarolik kodeksi, Mehnat kodeksi hamda ijtimoiy sug‘urta sohasini tartibga soluvchi qonun hujjatlarida belgilangan normalar orqali ta‘minlanadi.

Ichki ishlar organlari xodimlarining xizmat vazifasini bajarish chog‘ida hayoti va sog‘lig‘iga yetkazilgan zararni qoplash tizimidagi amaldagi muammolar sifatida quyidagilar, ya‘ni birinchidan, xodimning sog‘lig‘iga yetkazilgan zararining xizmat vazifalari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqligini isbotlash (tibbiy ekspertiza, xizmat tekshiruvi) ko‘p vaqt va ma‘muriy resurs talab etadi. Ikkinchidan, to‘lanayotgan bir martalik nafaqa yoki zararni qoplash miqdorlari ko‘pincha



International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd February, 2026

Website: <https://econferencia.com>

xodimning sogʻligʻi tiklanishi uchun ketadigan haqiqiy xarajatlarni (davolanish, reabilitatsiya) toʻliq qoplamaydi. Uchinchidan, zarar yetkazgan shaxslardan (jinoatchilardan) zararni qaytarish (regress tartibida) amaliyoti past darajada. Toʻrtinchidan, kompensatsiya toʻlovlarining murakkabligi va ijtimoiy himoya kafolatlarining amaliyotda toʻliq ishlamasligidir.

Takomillashtirish yoʻnalishlari sifatida zararni qoplash tartibini soddalashtirish, sugʻurta mexanizmlarini kuchaytirish va fuqarolik-huquqiy javobgarlikni oshirish talab etiladi.

Xalqaro huquqiy amaliyotda politsiya va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining xizmat paytida jarohat olish holatlarida fuqarolik huquqi institutlari bilan birga ijtimoiy sugʻurta, maxsus kompensatsiya jamgʻarmalari va jiddiy kafolatlar tizimi joriy etilgan boʻlib, unga koʻra xizmatdagi xavf omillarini huquqiy va ijtimoiy kafolatlar bilan bogʻlash orqali bunday yondashuv xodimlarni huquqiy nuqtai nazardan himoya qiladi va ularning hayot sifati va motivatsiyasini mustahkamlaydi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, Oʻzbekistonning fuqarolik huquqiy tizimini takomillashtirish uchun quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin: ijtimoiy himoya va fuqarolik huquqi mexanizmlarini integratsiyalash: maxsus kompensatsiya jamgʻarmalari, sugʻurta mexanizmlari hamda davlat kafolatlarini birlashtirgan kompleks yondashuvni joriy etish; sud amaliyotini standartlashtirish: zarar qoplanishi bilan bogʻliq fuqarolik sudlarida qarorlar amaliyotini tahlil qilib, yagona yondashuv va namunaviy qarorlarni ishlab chiqish.

Xulosa qilib aytganda, ichki ishlar organlari xodimlarining xizmat vaqtida hayoti va sogʻligʻiga yetkazilgan zararni qoplash tizimida mavjud protsessual murakkabliklar, kompensatsiya miqdorlarining yetarli emasligi hamda regress mexanizmining sust ishlashi ushbu sohani takomillashtirish zarurligini koʻrsatadi. Shu bois zararni qoplash tartibini soddalashtirish, sugʻurta va maxsus



International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd February, 2026

Website: <https://econferencia.com>

kompensatsiya mexanizmlarini kuchaytirish hamda sud amaliyotida yagona yondashuvni joriy etish ichki ishlar organlari xodimlarining huquqiy va ijtimoiy himoyasini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Rahmonqulov H.R. Fuqarolik huquqi. II qism: Majburiyat huquqi. – Toshkent: TDYU nashriyoti.
2. Ismoilov B.I. Fuqarolik-huquqiy javobgarlik va zararni qoplash masalalari. – Toshkent.
3. Abdulkarimov F.M. Xodimning hayoti va sog‘lig‘iga yetkazilgan zararni qoplashning huquqiy muammolari // O‘zbekiston yuridik axborotnomasi.
4. Mamasiddiqov A.B. Hayot va sog‘liqqa yetkazilgan zararni qoplashda davlatning fuqarolik-huquqiy javobgarligi // Yurist axborotnomasi.
5. Raximov A.R. Ichki ishlar organlari xodimlarining ijtimoiy va huquqiy himoyasi masalalari // Huquqiy tadqiqotlar ilmiy jurnali.